

**NAMANGAN DAVLAT CHET TILLARI INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/05.05.2023.Fil.163.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

TOJIBOYEV ILXOMJON USMONOVICH

**TURLI TIZIMLI TILLARDA “GO‘ZALLIK/XUNUKLIK” KONSEPTI
VERBALIZATORLARINING SEMANTIK VA LINGVOKULTUROLOGIK
XUSUSIYATLARI**

**10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik
va tarjimashunoslik**

**FILOLOGIYA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Namangan – 2024

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
филологическим наукам**

**Content of Dissertation Abstract of Doctor of Philosophy (PhD) in
Philological Sciences**

Tojiboyev Ilhomjon Usmonovich

Turli tizimli tillarda “go‘zallik/xunuklik” konsepti verbalizatorlarining semantik va lingvokulturologik xususiyatlari..... 3

Тожибоев Илхомжон Усмонович

Семантические и лингвокультурологические характеристики вербализаторов концепта «красота/уродливость» в разносистемных языках 25

Tojiboev Ilkhomjon Usmonovich

Semantic and linguocultural characteristics of verbalizers of the concept of "beauty/ugliness" in non-related languages 47

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works 56

**NAMANGAN DAVLAT CHET TILLARI INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/05.05.2023.Fil.163.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

TOJIBOYEV ILXOMJON USMONOVICH

**TURLI TIZIMLI TILLARDA “GO‘ZALLIK/XUNUKLIK” KONSEPTI
VERBALIZATORLARINING SEMANTIK VA LINGVOKULTUROLOGIK
XUSUSIYATLARI**

**10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik
va tarjimashunoslik**

**FILOLOGIYA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Namangan – 2024

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.4.PhD/Fil2987 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Namangan davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume) Ilmiy kengash veb-sahifasi (www.namsifl.uz) va “ZiyoNet” Axborot ta’lim portali (www.ziynet.uz) manzillarida joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Ziyayev Avazjon Ixtiyorovich
filologiya fanlari doktori (DSc), professor

Rasmiy opponentlar:

Xoshimova Dildora Madaminovna
filologiya fanlari doktori (DSc), professor

To‘rayeva Bahora Bahriddinovna
filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Yetakchi tashkilot:

Andijon davlat chet tillar instituti

Dissertatsiya himoyasi Namangan davlat chet tillari instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/05.05.2023.Fil.163.01 raqamli ilmiy kengashning 2024-yil “_____” _____ kuni soat _____dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: Namangan viloyati, To‘raqo‘rg‘on shahri, Saodat ko‘chasi, 28-uy. Tel.: +998 (69) 442-11-67; e-mail: info@namsifl.uz / namchi-1@exat.uz / namdchti@edu.uz).

Dissertatsiya bilan Namangan davlat chet tillari instituti Axborot resurs markazida tanishish mumkin (_____ raqam bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: Namangan viloyati, To‘raqo‘rg‘on shahri, Saodat ko‘chasi, 28-uy. Tel.: +998 (69) 442-11-67).

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil “_____” _____ kuni tarqatildi.
(2024-yil “_____” _____ dagi _____ raqamli reyestr bayonnomasi).

N.T.Dosbayeva

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
raisi, filol.f.d, professor

I.I.Umrzaqov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
kotibi, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa
doktori (PhD), dotsent

S.A.Misirov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi,
p.f.n., dotsent

KIRISH (falsafa doktori PhD dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon tilshunosligida har qanday til hodisasi turlicha talqin kasb etadi. Nafaqat tilshunoslik, balki jami ijtimoiy-gumanitar ilmlarning asosi bir-biriga zid, ayni paytda bir-birini to'ldirib turuvchi fikrlar, nazariyalar asosiga quriladi. Shunday ekan, mavjud har qanday lisoniy birlikning turfa xil fan aspektlari doirasida o'rganilishi bu – aynan o'sha til birligiga nisbatan mukammal tadqiqotlar va dolzarb fikrlar yaratilishiga asos bo'ladi. Jumladan, konsept tilning ijtimoiy-gumanitar sathiga tegishli kognitiv, ayni paytda, lingvokulturologik birlik sifatida muhim milliy-madaniy qadriyatlarni tadqiq etuvchi lingvistik hodisa ekanligi bilan ahamiyatlidir.

Dunyo tilshunosligida konsept hodisasi ma'lum darajada o'rganilgan bo'lsada, xususan, antonimik konseptlar: yaxshilik-yomonlik, xursandlik-xafalik, go'zallik-xunuklik kabi binar oppozitsiyasi asosida shakllangan konseptlarni antroposentrik paradigma asosida o'rganish bilan bog'liq tadqiqotlarga ehtiyoj sezilmoqda. Xususan, bugungi kunda madaniy til konseptlari juda ko'p jahon tilshunoslarining tadqiq obyektiga aylanib ulgurdi. Shunga qaramay, "go'zallik/xunuklik" konsepti va u bilan bog'liq lingvomadaniy, lingvokognitiv xususiyatlarning chog'ishtirma tadqiqiga zarurat kuchayib bormoqda. Mazkur dissertatsiya tadqiqoti ana shu muhim muammolarni hal etishga yo'naltirilganligi bilan alohida ahamiyat kasb etadi.

O'zbek tilshunosligida "go'zallik/xunuklik" konseptlarining til va jamiyatdagi o'rni va ahamiyatini ko'rsatishda mazkur birliklarning binar oppozitsiyasi asosida shakllanganligi hamda mazkur estetik konseptlar makon va zamonda har doim yonma-yon turuvchi, bir-birini taqozo etuvchi konseptlar ekanligini asoslash, komponent tahlil asosida ularning arxisema, integral va differensial semalarini aniqlash, ingliz va o'zbek tillarida mavjud metaforik, paremiologik, leksik-frazeologik birliklar asosida tahlil qilinishi va uning o'ziga xos xususiyatlari, milliy-madaniy, lisoniy va estetik sifatlarining aniqlanishi, bunda xalqning ma'naviyati, dunyoqarashi, milliy falsafasining namoyon bo'lishi, til va xalq ajralmas ekanligi borasidagi fikrning ahamiyatini ta'kidlaydi. Shu o'rinda konseptlarning lingvokulturologik xususiyatlarini atroflicha va chuqur bilish nafaqat o'zbek, balki, dunyo tilshunosligi uchun ham zarurat kasb etmoqda. Dissertatsiya turli tizimli tillarda, xususan, ingliz va o'zbek tillarida "go'zallik/xunuklik" konsepti verbalizatorlarining komponent tahlil asosida ularning arxisema, integral va differensial semalarini aniqlash, ularning semantik-struktur jihatdan tahlil qilish, ular orasidagi sinonimik va antonimik munosabatlar hamda mazkur konseptlarning umumlisoniy tabiatini ochib berishga bag'ishlangan.

Ushbu dissertatsiya doirasida amalga oshirilgan tadqiqotlar O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-sonli "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmonida¹, 2017-yil 17-fevraldagi PQ-2789-sonli «Fanlar akademiyasi faoliyati,

¹ Мирзиёев Ш.М. Ўзбекистон Республикасини Президентининг "Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича ҳаракатлар стратегияси тўғрисида"ги Фармони // Халқ сўзи. 2017 йил 18 февраль № 28 (6722).

ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi Qarorida, 2018-yil 5-iyundagi PQ-3775-sonli «Oliy ta‘lim muassasalarida ta‘lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta‘minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi Qarorida hamda mazkur faoliyatga taalluqli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlarga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirish, innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Tilshunoslikda olamning lisoniy manzarasi, tilda bahoning ifodalanishi, turli xil konseptlar hamda ularning nazariy tadqiqiga bag‘ishlangan talqinlar xorijlik olimlardan V. fon Gumboldt, R.V.Langaker, J.P.Lakoff, N.D.Arutyunova, V.I.Karasik, E.S.Kubryakova, T.N.Fedotova, L.I.Zaxarova, A.A.Potebnya, A.G.Vejbitskaya, Y.D.Apresyan, I.F.Sternin, Y.S.Stepanov, V.A.Maslova, N.F.Alefirenko, A.T.Xrolenko, R.N.Popova, E.J.Munin, O.A.Kornilov tadqiqotlarida kuzatiladi. O‘zbek tilshunosligida A.A.Abduazizov, D.U.Ashurova, Sh.S.Safarov, M.R.Galiyeva, A.E.Mamatov, M.N.Xolbekov, M.I.Rasulova, O‘.Q.Yusupov, G‘.S.Qambarov, S.R.Akbarova, G‘.M.Hoshimov kabi olimlarning ishlarida atroflicha tadqiq etilgan².

Xususan, “go‘zallik” konsepti dunyo tilshunoslari tomonidan ma‘lum darajada o‘rganilgan. Jumladan, A.Volkova³, A.Ziyayev⁴ ingliz tili materialida, Y.Klinsova⁵, E.Cherekashina⁶, M.Averina⁷, A.Anashkina⁸, N.Aniskina⁹,

² Абдуазизов А.А. О составных частях когнитивной лингвистики//Преподавание языка и литературы. – Ташкент, 2007.– №3.– Б.34; Ашурова Д.У. Перспективы научных исследований в свете новых направлений лингвистики//Филология масалалари. – Тошкент, 2004. –№4. – С. 24-28.; Сафаров Ш. Когнитив тилшunoslik. – Жиззах: Сангзор, 2006. – 98 с.; Галиева М.Р. Вербализация концептосферы word/ сўз/слово в английской,узбекской и русской языковых картинах мира: дисс... канд.фил.наук. – Ташкент, 2010. – 130 с.; Юсупов У. К. Теоретические основы сопоставительной лингвистики. – Ташкент: Фан, 2007. – 127 с.; Холбеков М.Н. Узбекско-французские литературные взаимосвязи (в контексте перевода, критики и восприятия): автореф. дисс...док.филол. наук. –Ташкент, 1991.; Маматов А.Э. Тилга когнитив ёндашувнинг мохияти нимада? // Ўзбек тилшunosligининг долзарб муаммолари: илмий амалий анжуман материаллари. – Андижон: – Тошкент, 2000. – Б. 56.; Расулова М.И. Основы лексической категоризации в лингвистике. – Ташкент: Фан, 2005. – 268 с.; Қамбаров Ғ.С. Баҳо муносабати ва унинг ўзбек тилида ифодаланиши (шахслараро муносабат асосида): фил. фан. номз... дисс. – Тошкент, 2008.; Хошимов Ғ.М. К теории концептов и их таксономики в когнитивной лингвистике // Систем-структур тилшunoslik муаммолари. Филология фанлари доктори, профессор Н.К.Турниёзов таваллудининг 70-йиллигига бағишланган Республика илмий-назарий конференцияси материаллари. – Самарканд, 2010. – Б. 12-18.

³ Волкова А.А. Языковая репрезентация гендерных и возрастных особенностей концепта «beauty» в англоязычных текстах рекламы косметики // «Современные научные исследования и инновации» электронный научно практический журнал – 2016.

⁴ Зияев А.И. Инглиз тилида сўз маънолирини кучайтиришнинг лингвокогнитив аспекти: Филол. фан. ном. дис. ... автореф. – Самарканд, 2009. – 22 б.

⁵Клинцова Ю.В. Специфика вербализации красоты в русской языковой картине мира // Молодые ученые АФ РГСУ. Анапа, 2006. С. 107-110.

⁶ Черкашина, Е.А. Концепт «красота» в русском языке / Черкашина Е.А. // Вестник Таганрогского института имени Чехова А.П. – 2014. – № 2 – С. 38–43.

N.Arutyunovalar¹⁰ rus tili materialida tadqiqot olib borganlar. Mazkur muammo bo'yicha qiyosiy-tipologik planda ham ishlar mavjud. Xususan, Y.Mesheryakova¹¹, I.Okuneva¹², M.Raxmatova¹³, Y.Bokova¹⁴, Li Venjuy¹⁵, O.Pak¹⁶, G.Sadriyeva¹⁷ N.Boymatova¹⁸ kabilar makur konsept bo'yicha qiyosiy asnoda tadqiqot olib borishgan.

O.Kozina¹⁹ hamda S.Kotina²⁰lar mazkur konseptni psixologik nuqtai nazardan tadqiq etishgan. M.Pimenova²¹ va O.Saxarova²² kabilar antonimik konsept nuqtai nazaridan o'rgangan. Lekin mazkur muammo ingliz va o'zbek tillarda monografik tarzda tadqiq etilmagan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Tadqiqot Namangan davlat universiteti Ingliz tili va adabiyoti kafedrasida ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq "Ingliz va o'zbek tillarining antroposentrik tadqiqi" mavzusi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi estetik kategoriyalardan sanalmish "go'zallik/xunuklik" konseptlarining ingliz va o'zbek tillaridagi lisoniy ifoda vositalarini qiyosiy-chog'ishtirma aspektda ochib berishdan iborat.

⁷ Аверина, М.А. Вербализация концепта «красота» в лексеме «прекрасный» как составляющая языковой картины мира / Аверина М.А. // *Universum: филология и искусствоведение*. – 2014. – № 10(12). – С. 12–14.

⁸ Анашкина А.В. Концепт красота и его воплощение в дискурсе рок – поэзии (на материале текстов группы «Аквариум») / Анашкина А.В. // *Вестник Томского государственного педагогического университета*. – 2014. – № 2 (143). – С. 59–61.

⁹ Аниськина, Н. В. Лексическая экспликация концепта красота в современной рекламе / Аниськина Н.В. // *Верхневолжский филологический вестник*. – 2016. – № 2. – С. 87–92.

¹⁰ Арутюнова Н.Д. Истина. Добро. Красота: Взаимодействие концептов [Конференция]// *Логический анализ языка. Языки эстетики: Концептуальные поля прекрасного и безобразного*. – М.: Индрик, 2004. – 720 с.

¹¹ Мещерякова Ю.В.. Концепт «красота» в английской и русской лингвокультурах: Автореф. дис. ... канд. филол. наук. Волгоград, 2004. 24 с.

¹² Окунева И.О. Концепт «красота» в русском и английском языках: автореф. дисс... канд.филол. наук. – Москва: 2009. – 25 с.;

¹³ Рахматова М.М. Инглиз, ўзбек ва тожик миллий маданиятида "гўзаллик" концептининг лисоний хусусиятлари, фил. фанлари бўйича фалсафа доктори дисс.автореф. - Бухоро: 2019. – 51 б.

¹⁴ Бокова Ю.С. Вербализация концепта «красота» в русском и англоязычном лингвокультурном сознании (на материале произведений русских, английских и американских писателей). диссертация ... кандидата филологических наук.- Москва, 2012.- 168 с.

¹⁵ Ли Вэньжуй. Внешность человека в русской паремиологической картине мира: лингвокультурологический аспект (на фоне китайского языка). автореф. дисс ... кандидата филологических наук.- Санкт-Петербург – 2019. 52 с.

¹⁶ Пак, А.О. Сопоставительное исследование концепта «красота» в китайском и русском языках: автореф. дис. ... канд. филол. наук: 10.02.20 / Пак Анна Олеговна. – Душанбе, 2009. – 25 с.

¹⁷ Садриева, Г. А. Метафорическая репрезентация концепта «красота» в английском, русском и татарском языках / Г. А. Садриева // *Известия 148 ВГПУ (Волгоградского государственного педагогического университета)*. – 2013. – № 1 (76) – С. 36–39.

¹⁸ Бойматова Н.. Семантическое поле концепта «Красота» в таджикской и английской лингвокультурах. диссертация ... кандидата филологических наук.- Душанбе, 2019.- 174 с.

¹⁹ Козина О.А. Красота как онтологический базис диалектики. Антиэнтропийная функция красоты // *Человек в культуре России*. - Ульяновск, 1997.-С. 21-22.

²⁰ Котина С.В. От понимания красоты к принципу красоты в научном познании // *Проблема метода в социально-гуманитарном познании*. - М., 1989. - С 106-119.

²¹ Пименова М.В. Оппозиция "красивый-безобразный" в художественном тексте (на материале сказки "Аленький цветочек")// *Всероссийская научная конференция "Художественный текст и культура"*. - Владимир, 1993. - С. 169-170.

²² Сахарова О.В. Прекрасное/безобразное в формировании этносоциокультурной модели мира. //Логический анализ языка, языки эстетики: концептуальные поля прекрасного и безобразного –М.: Индрик, 2004 – С. 573 - 585.

Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:

kognitiv lingvistikaning mustaqil ilmiy yoʻnalish sifatida vujudga kelishi va uning asosiy tushunchalariga aniqlik kiritish hamda tadqiq etilayotgan “goʻzallik/xunuklik” konseptlari makon va zamonda yonma-yon turuvchi, bir-birini taqozo etuvchi konseptlar ekanligini izohlash;

komponent tahlil usuli yordamida mazkur konseptlarni ifodalovchi leksemalarning arxisemasi, integral va differensial semalarini aniqlash;

har ikki tilda ifodalangan “goʻzallik/xunuklik” konsepti semantikasini leksik, frazeologik birliklar, shuningdek, maqollar tahlili asosida tasniflash va qiyoslanayotgan tillarning etnik jihatlarini hisobga olgan holda leksik birliklarning milliy-madaniy va lisoniy xususiyatlarini ochib berish;

ingliz va oʻzbek tillarida ifodalangan “goʻzallik/xunuklik” konseptini metaforalar orqali voqelanish jihatlarini asoslash;

mazkur konseptlarni ifodalovchi leksemalar orasidagi sinonimik va antonimik munosabatlarga aniqlik kiritish;

Tadqiqotning obyektini “goʻzallik/xunuklik” konseptining leksik, frazeologik va kontekstual sathlarda aks etgan milliy-madaniy, lisoniy xususiyatlari tashkil etadi. Ishda obyekt sifatida “Oʻzbek tilining izohli lugʻati” (5 tomlik), Ingliz tilida esa Makmillan, Oksford, Uebster, Chambers, Kollinz, Longmen, Xornbi, hamda frazeologik, antonimik va sinonimik lugʻatlari va badiiy asarlardan foydalanildi.

Tadqiqotning predmetini ingliz va oʻzbek tillarida ifodalangan “goʻzallik/xunuklik” konsepti lisoniy xususiyatlarining mushtarak va farqli jihatlarini tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotning oldiga qoʻyilgan vazifalarni hal qilish maqsadida ishda tavsifiy, qiyosiy-chogʻishtirma, komponent tahlil, statistik, sistem-struktur tahlil metodlaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

kognitiv tilshunoslikning vujudga kelishi, uning asosiy tushunchalari boʻlmish konsept, freym, geshtalt, sxema, ssenariy kabilarga eʼtibor qaratilgan hamda konseptni leksik maʼno va tushunchaga oʻxshash va farqli tomonlari asoslangan;

“goʻzallik/xunuklik” konseptlari makon va zamonda yonma-yon turuvchi, bir-birini taqozo etuvchi konseptlar ekanligi, goʻzallikni uning ziddi boʻlmish xunukliksiz tasavvur qilish qiyin kechishi, bu ikki estetik xususiyat oʻzaro doimiy dialektik munosabat tufayli mavjudligi hamda ular biri ikkinchisining namoyon boʻlishi uchun koʻzgu vazifasini bajarishi dalillangan;

komponent tahlil orqali tadqiq etilayotgan konseptlarning arxisemasi, integral va differensial semalari aniqlanib, ularning struktur xususiyatlari va modellari (Adj+n, V+adv, N+pr+N, N+pr+adj+N; ot+sifat, sifat+ot, ot+ot, sifat+sifat, sifat feʼl;) ochib berilgan;

tadqiq etilayotgan konseptlarning milliy-madaniy xususiyatlarini aniqlashda frazeologik birliklar, paremiyalar hamda metaforalarning oʻziga xos jihatlarini ochib berilib, ular orasidagi sinonimik va antonimik munosabatlarga aniqlik kiritilgan;

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat: komponent tahlil asosida ingliz va o‘zbek tillaridagi “go‘zallik/xunuklik” konseptlariga doir leksik birliklarning miqdor ko‘rsatkichlari statistikasi aniqlangan; tilda qadriyatlar va baho ifodalanishining xususiyatlari, leksik, frazeologik birliklarning derivatsion o‘ziga xosliklari tahlillari natijasida aniqlangan olamning estetik milliy manzarasi asoslangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Mavzuga oid tahlil materiallari qardosh bo‘lmagan ikki til tabiatidan kelib chiqqan holda chiqarilgan xulosalarning asosiligi, respublika hamda xorijlik olimlarning nazariy fikrlariga tayanilganligi, metodologik mukammalligi respublika va xalqaro miqyosdagi ilmiy-amaliy anjuman materiallari, OAK tasarrufidagi maxsus jurnallar hamda xorijiy ilmiy jurnallarda chop etilgan maqolalar, taklif va xulosalarning amaliyotga joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Mazkur tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati lingvomadaniyatshunoslikda estetik qadriyatlar nazariyasining til, tafakkur va madaniyat, baho va uning tilda ifodalanishi kabi muammolarini echishda xizmat qiladi. Lisoniy estetik baho tushunchasi, estetik bahoning tilda aks etishiga oid yangicha yondashuvlar lingvomadaniyatshunoslik sohasining zamonaviy nazariyalar bilan boyishida namoyon bo‘ladi. Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati olingan xulosalardan zamonaviy tilshunoslik, lingvomadaniyatshunoslik, stilistika, nutq madaniyati, matn lingvistikasi, tarjima nazariyasi va amaliyoti, tanlov fanlar bo‘yicha darslik, o‘quv-uslubiy qo‘llanmalar yaratishda, kurs va bitiruv-malakaviy ishlarini yozishda, magistrlik, doktorlik dissertatsiyalarini tayyorlashda, maxsus kurslarni o‘qitishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Turli tizimli tillarda “go‘zallik/xunuklik” konsepti verbalizatorlarining semantik va lingvokulturologik xususiyatlari bo‘yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

kognitiv tilshunoslikning vujudga kelishi, uning asosiy tushunchalari bo‘lmish konsept, freym, geshtalt, sxema, ssenariylarga doir ilmiy materiallardan hamda konseptning leksik ma’no va tushuncha bilan o‘xshash va farqli tomonlari asoslab berish orqali erishilgan ilmiy natija va xulosalardan FZ-201912099 “O‘zbek folklorining o‘zbek va ingliz tillaridagi veb sayti va multimedia mahsulotini yaratish” 2020-2023 yillarga mo‘ljallangan ilmiy-amaliy loyihada foydalanilgan (*Namangan davlat universitetining 2023-yil 7-noyabrdagi 2050-04-son ma’lumotnomasi ma’lumotnomasi*). Natijada loyiha milliy-madaniy xususiyatlarini aniqlashda frazeologik birliklar, paremiyalar hamda metaforalarning o‘ziga xos jihatlari hamda ular orasidagi sinonimik va antonimik munosabatlari o‘zbek va ingliz adabiyotidan olingan misollar asosida ular o‘rtasidagi aloqalar, o‘zaro ta’sir va bir-birini boyitish jarayonlariga oid ilmiy materiallar bilan boyitilgan;

“go‘zallik/xunuklik” konseptlari makon va zamonda yonma-yon turuvchi, bir-birini taqozo etuvchi konseptlar ekanligi, go‘zallikni uning ziddi bo‘lmish xunukliksiz tasavvur qilish qiyin kechishi, bu ikki estetik xususiyat o‘zaro doimiy

dialektik munosabat tufayli mavjudligi hamda ular biri ikkinchisining namoyon bo'lishi uchun ko'zgu vazifasini bajarishi dalillab berish orqali olingan ma'lumotlardan O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi tomonidan o'tkazilgan ma'naviy-marifiy tadbirlarda, Badiiy tarjima ijodiy kengashi hisobot yig'ilishlarida keng foydalanilgan. (*O'zbekiston yozuvchilar uyushmasining 2023-yil 7-sentyabrdagi 01-03/987-son ma'lumotnomasi*). Natijada dissertatsiya natijalarining samaradorligi va ular asosida ishlab chiqilgan tavsiyalarning amaliyotga tatbiq etilishi yuzasidan erishilgan ijobiy natijalar "Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ib qilish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi"ning 35-bandi doirasida o'z aksini topgan, ya'ni chet tillar bo'yicha qo'llanmalar, maqolalar, tezislar yozishda noan'anaviy yondashuvlar sifatida yangicha qarashlar va uslublar mazmunan boyitilgan;

tadqiq etilayotgan konseptning ilmiy-madaniy xususiyatlarini aniqlashda frazeologik birliklar, paremiyalar hamda metaforalarning o'ziga xos jihatlarini ochib berish hamda ular orasidagi sinonimik va antonimik munosabatlarga aniqlik kiritish orqali olingan natija va xulosalardan O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi "O'zbekiston teleradiokanali" DM muharririyati tomonidan tayyorlangan "Adabiy jarayon", "Ta'lim va taraqqiyot", "Jahon adabiyoti" radioeshittirishlar ssenariysini tayyorlashda foydalanilgan. (*O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi O'zbekiston teleradiokanali davlat muassasasining 2023-yil 30-maydagi 04-36-845-son ma'lumotnomasi*). Natijada mazkur radioeshittirishlar sohaga doir muhim materiallar bilan boyitilgan;

komponent tahlil orqali tahlil etilayotgan konseptlarning konseptlarning arxisemasi, integral va differensial semalari aniqlanib, ularning struktur xususiyatlari va modellari yuzasidan erishilgan natijalar va ishlab chiqilgan tavsiyalardan AQSHning O'zbekistondagi elchixonasining "Alumni Outreach Grants Program" dasturi doirasida 2020-2021 yillarda Namangan davlat universitetida bajarilgan S-UZ800-20-IN-0106 raqamli "Virtual Workshop on Collaborative Action Research for English Teachers" amaliy doiyhada foydalanilgan (*Namangan davlat universitetining 2023-yil 29-avgustdagi 476-01-son ma'lumotnomasi*). Natijada tadqiqotda ilgari surilgan taklif va tavsiyalar, ilmiy yangiliklar asosida dastur va qo'llanmalarni yaratishga, ta'lim hamda madaniyatni rivojlantirishga qaratilgan nazariy va amaliy ishlarni yanada samarali tashkil etishga xizmat qilgan;

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Olib borilgan tadqiqotning asosiy mazmuni va natijalari 8 ta ilmiy-amaliy anjumanlarda, jumladan, 3 ta xalqaro va 5 ta respublika va hududiy ilmiy-amaliy konferensiyalarda muhokama qilingan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalarining asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 8 ta maqola, shundan 5 tasi respublika hamda 3 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiya tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yhatidan iborat bo'lib, uning umumiy hajmi 144 betni tashkil qiladi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning kirish qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslanib, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obykti va predmeti tavsiflangan. Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilib, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari yoritilgan. Olingan natijalarning ilmiy va amaliy mohiyati ochib berilgan. Tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi, nashr qilingan ishlar hamda dissertatsiya ishining tuzilishi haqida ma’lumot berilgan.

Tadqiqotning I bobi «*Kognitiv tilshunoslik va uning asosiy tushunchalari va kategoriyalari*» deb nomlangan bo‘lib, 3 fasldan iborat. Uning birinchi fasli «*Kognitiv tilshunoslik istiqbolli yo‘nalish sifatida va uning tayanch tushunchalari xususida*» deb ataladi. Unda kognitiv tilshunoslik – bu nafaqat alohida lingvistik yo‘nalish, balki bilimlarning yangi ilmiy paradigmasi hisoblanib, u o‘z oldiga lingvistik sohalardagi muammolarni hal etish yo‘llarini ko‘rsatib beruvchi tilshunoslik ekanligi e’tirof etiladi. Ma’lumki, Amerika va Yevropa kognitiv tilshunoslarining buyuk namoyondalaridan: D.Gerarts, R.Jekendorf, M.Jonson, J.Lakoff, R.Langaker, Ch.Filmor kabilar mazkur lingvistikani shakllanishiga munosib hissa qo‘shganlar.

Shuni qayd etish lozimki, kognitiv fanlar yuzaga kelgunga qadar ham inson dunyoni bilishga qiziqqan, barcha kognitiv fanlarning shakllanishi antik davrlardan boshlangan hamda Platon va Aristotel kabi olimlarning bilimning paydo bo‘lishi haqidagi g‘oyalari bilan bog‘liq bo‘lgan.

Psixolingvistika tilshunoslikni kognitiv paradigmaga o‘tishiga metodologik jihatdan zamin yaratdi²³. Kognitiv tilshunoslikda konsept tabiatini o‘rganishga katta ahamiyat berishadi. Konsept tabiatini o‘rganishga bo‘lgan har qanday urinish, bir qancha bir-biriga yaqin bo‘lgan tushuncha va terminlarni anglash, izoh berishga olib keladi. Avvalambor, bularga *konsept, tushuncha va ma’no* kiradi.

Yuqoridagilar bilan bir qatorda yana shuni ham ta’kidlash lozimki, kognitiv psixologiyadan o‘zlashtirilgan *freym, skript, ssenariy, geshtalt* kabi inson xotirasida saqlanadigan bilimlar, ma’lumotlar majmuasini aks ettiruvchi oraliq til birliklari ham bugungi kunda antroposentrik tilshunoslikning asosiy tushunchalari tizimi qatoridan o‘rin olmoqda. Tadqiqotda ushbu tushunchalar xususida ham etarlicha ma’lumotlar keltirilgan.

Kognitiv tilshunoslikning tayanch atamasi “konsept” bo‘lib, hozirgacha lingvistikaga oid lug‘atlarda bu atama ko‘zga tashlanmaydi. Shu kunga qadar bu-konsept atamasiga “tushuncha” sinonimi sifatida qarab kelingan. Ishda olimlarning “konsept” to‘g‘risidagi fikr-mulohazalari va qarashlariga munosabat bildirilgan.

Tilshunos A.I.Ziyayevning fikricha, kognitiv tilshunoslik va lingvokulturologiyaning o‘rganish obykti bo‘lgan “konsept” ontologik jihatdan yuksak umumlashtiruvchilik va tilning turli sathlari, vositalari orqali ifodalanish imkoniyatlariga ega bo‘lgan, har bir tilda o‘ziga xos semantik maydonni vujudga

²³ Лукашевич Е.В. Когнитивная семантика: эволюционно-прогностический аспект. М.; Барнаул, 2002.. –С..32

keltiradigan keng qamrovli tushunchadir²⁴. Biz ham mazkur fikrga tayanamiz, zero konsept tafakkur birligi hisoblanib, uning asosida tushuncha, ma'no va obraz yotadi hamda u bilim umumlashmasi deb ataladi va unga yuksak darajadagi mazmuniy umumiylikka ega birlik sifatida qaraymiz.

Ma'no, tushuncha va konsept – bular turlicha terminlardir. Konsept va tushuncha – ikki parallel terminlar bo'lib, ular turli fanlarga taalluqli: tushuncha – mantiq va falsafa termini bo'lsa, konsept – garchi o'zining ichki shakliga ko'ra tushunchaga o'xshasada, u matematik logika, madaniyatshunoslik, lingvokulturologiya, kognitiv tilshunoslik kabi fanlar termini hamdir. Bularning ichida konsept keng qamrovli bo'lib, tushuncha va ma'noni ham o'z ichiga qamrab oladi.

Bobning keyingi faslida tilning rivojlanishida oppozitsiya atamasini o'rni haqida so'z boradi. Hozirgi zamon tilshunosligining asoschilaridan biri Ferdinand de Sosyur o'z davrida til mexanizmining faqat o'xshashlik va tafovutlar atrofida aylanishini yoxud tilning aynanlik va farqliliklardan iborat ekanligini ko'rsatgan holda tilshunoslik uchun farqliliklarni o'rganish katta ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlagan edi²⁵. Darhaqiqat, bugungi kunga qadar faoliyat ko'rsatgan an'anaviy tilshunoslik til qurilishini ziddiyatlarga (binar oppozitsiyalarga) ajratib o'rganishga alohida e'tibor qaratgan bo'lsa, hozirgi davr esa ziddiyatlar orasidagi o'xshashliklarni tadqiq qilish vaqti etganligiga ishora qilmoqda. Inson o'z hayotiy bilish yo'lini farqli juftlik usuli asosida tashkil etgan. Biz buni dunyoni bilish ta'limotiga xizmat qiluvchi hozirgi ilmiy tushunchalarning binar usul bilan shakllantirilganligida, ya'ni *inkorni inkor, qarama–qarshiliklar birligi va kurashi, miqdor o'zgarishlarining sifat o'zgarishlariga aylanishi* qonuniyatlari qurilishlarida, kategoriyalarning juftlik asosida talqin etilishida (*sabab-oqibat, mazmun-shakl, mohiyat-hodisa, zaruriyat-tasodif, butun-bo'lak, yaxshilik-yomonlik, go'zallik-xunuklik, xursandlik-hafalik* kabi) ko'rishimiz mumkin.

Kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, borliqning bir xil sifatlarga ega bo'lgan olamlari o'zlariga xos tarzda oraliq uchinchilarga egadir. Masalan, *metall va metall emaslar* orasida *metalloidlar*, *-1* bilan *+1* o'rtasida *0*, *yoz* bilan *qish* orasida *bahor*, *so'z* bilan *affiks* orasida *affiksoid* va hokazolar shular jumlasidandir²⁶. Demak, moddiy borliq va uning in'ikosi bo'lgan tilni uzluksiz zanjir sifatida o'rganish, oraliq uchunchi orqali ikki a'zoli tasnifdan ko'p a'zoli tasnifga va tavsifga o'tish barcha fanlar oldida turgan zaruriyatdir.

Mazkur bobning keyingi faslida “go'zallik/xunuklik” konseptlari estetik kategoriya sifatida o'rganiladi. Estetikaning “go'zallik/xunuklik” kabi tushunchalari har biri o'ziga xos xususiyalarga ega bo'lib, inson estetik dunyoqarashining shaklanishida o'z o'rniga ega. Inson olamdagi, tabiatdagi, go'zallik va xunukliklarni ko'rish, tinglash, his qilish orqali ichki xissiyotlarga beriladi va yuragida ajib bir tug'yon jo'sh uradi. Bu tug'yon go'zallikdan

²⁴ Зияев А.И. Тилда интенсификация/деинтенсификация семантикасининг лисоний бирлик ва шакл парадигмаларини ҳосил қилиши: Филол.фан.д-ри...диссертацияси. – Фарғона, 2020. – Б. 208.

²⁵ Соссюр Ф. Труды по языкознанию. – М.: Прогресс, 1977. – С. 141.

²⁶ Бозоров О. Ўзбек тилида даражаланиш. Монография. Тошкент. Фан, 1995.–Б. 27.

zavqlanish, xunuklikdan nafratlanish tuyg'usidir. Qarama-qarshi ana shu tushuncha har bir inson qalbida ajib bir ichki xissiyotlar uyg'otadi.

Go'zallik estetikaning asosiy tushunchalaridan biri bo'lib, u nafasat olamining mag'zi, asosiy belgisi, bosh xossasi, asosiy mohiyatini tashkil qiladi. Shu bois estetikani go'zallik haqidagi fan, go'zallik falsafasi ham deb ataydilar. Go'zallik – bu asosiy estetik qadriyat bo'lib, uni idrok etish qobiliyati esa estetik subyektning asosiy xossasidir. Mutafakkirlarning aytishlariga qaraganda, go'zallik haqida fikr yuritish va uni bayon qilish nihoyatda murakkab va mashaqatli jarayondir.

Xunuklik ham estetik kategoriya sifatida inson go'zalligi, sha'ni, qadr-qimmatini va ideal tasavvurlarga xilof keladigan xususiyat, narsa va hodisani ifodalaydi. Go'zallikning aksi bo'lmish xunuklik kishida turli xil salbiy his-tuyg'u, noxush kayfiyat, taassuf va nafrat qo'zg'atadi, yoqimsiz taassurot qoldiradi.

Go'zallikni uning ziddi bo'lmish *xunukliksiz* tasavvur qilish qiyin kechadi. Chunki bu ikki estetik xususiyat o'zaro doimiy dialektik munosabat tufayli mavjud. Ular biri ikkinchisining namoyon bo'lishi uchun ko'zgu vazifasini bajaradi: go'zallikning mohiyatini anglasak, xunuklik nima ekanini bilib olamiz, xunuklikning mohiyatini tushunib etsak, go'zallik haqida to'g'ri tasavvurga ega bo'lamiz. Shu sababli bu ikki estetik xususiyatni anglatadigan tushunchalarni bir-biridan ajratib emas, aksincha o'zaro bog'liq juftlik istilohlar tarzida olib qarash maqsadga muvofiq, zero, hech bir zid tushunchani fanda salbiy deb chetga chiqarib qo'yish yoki unga jiddiy e'tibor bermasdan qarash mumkin emas.

Tadqiqotning 2-bobi *“Ingliz va o'zbek tillarida “go'zallik/xunuklik” konseptlarining leksik semantik maydoni”* deb nomlanib, uning birinchi fasli *“Ingliz tilida “go'zallik/xunuklik” konseptlarini ifodalovchi so'zlarning komponent tahlili”*ga bag'ishlanadi.

Ma'lumki, komponent tahlil usulining bosh maqsadi leksik birlikning ma'nosini semalarga bo'lib o'rganishdir. Chunki leksik birliklar ma'no strukturasi asosini xuddi shunday semalar tashkil qiladi. Ingliz tilining izohli lug'atlari tahliliga ko'ra, “beauty” konseptini ifodalovchi so'zlarning semantik strukturasi “attractiveness” semasi mavjud bo'lib, ular ushbu arxisema asosida katta semantik maydonga birlashishi, “ugliness” konseptida “unpleasantness” semasi, arxisema bo'lib, ular bu semantik guruhlar uchun umumlashtiruvchi ma'no kasb etadi.

“Beauty” (“go'zallik”) konseptini ifodalovchi so'zlarda “Look attractive”, “Pleasing appearance of someone's figure and parts of body”, “Pleasing appearance of someone's movement and state”, “Pleasing appearance of things and nature” kabi 4 integral semalarning mavjudligi ma'lum bo'ldi.

Komponent tahlil natijalariga ko'ra “Ugliness” (“xunuklik”) konseptini ifodalovchi leksemalar ham “Unpleasant to look at”, “Unpleasant appearance of someone”, “Unpleasant appearance of someone's movement and state”, “Unattractive appearance of things and nature” kabi 4 integral sema ostida kichik maydonchalarga ajralishini guvohi bo'ldik.

“Beauty/ugliness” konseptlarini ifodalovchi so'zlarning tahliliga e'tibor qaratadigan bo'lsak, farqli va o'xshash tomonlarni ko'rish mumkin. Avvalo, har

ikkala konseptni ifodalovchi soʻzlar uchun integral semalar teng miqdorda va oʻxshash boʻlib, faqatgina “yoqimlilik” yoki “yoqimsizlik” semalari orqali bir-biridan farqlanadi.

Bobning 2-fasli “Oʻzbek tilida “goʻzallik/xunuklik” konseptini ifodalovchi soʻzlarning komponent tahlili”ga bagʻishlanadi. Kuzatishlarimiz shuni koʻrsatdiki, har bir milliy tilning leksik sathida muayyan miqdordagi “goʻzallik/xunuklik” maʼnosini ifodalovchi leksik birliklar mavjud. Buni oʻzbek tili misolida koʻrsatishga harakat qilamiz. Bizning eng soʻnggi besh jildli “Oʻzbek tilining izohli lugʻati” boʻyicha aniqlagan materiallarimiz shuni koʻrsatdiki, unda goʻzallik maʼnosini ifodalovchi 320 ga yaqin leksemalar mavjud.

Olib borilgan komponent tahlil mazkur konseptni ifodalovchi leksik birliklarning semantik strukturasiida “*didga mos*”, “*yoquvchi*” semalari mavjud boʻlib, “*yoqimlilik*” arxisemali semantik maydonga birlashadi. “*Yoqimlilik*” arxisemali leksemalar yana “*koʻrinish*”, “*chiroy*”, “*tuzilish*”, “*xarakat*” va “*tabiiy koʻrinish*” integral (oraliq) semalari boʻyicha toʻrt guruhga boʻlinadi. Yaʼni, ushbu semalarning har biri “*yoqimlilik*” arxisemali leksemalarning biror guruhini umumlashtirish vazifasini bajaradi. Shu maydonga kiruvchi har bir leksema maʼlum semalari boʻyicha oʻzaro farqlanadi, yaʼni oʻzaro xoslanadi. Bu sema differensial sema deb nomlanadi. Differensial sema bilan arxisema oraligʻida integral sema yotadi.

Oʻzbek tilining izohli lugʻatini tahlil qilish mobaynida undagi “xunuklik” konseptiga oid 242 ta leksemalar aniqlandi. Xunuklik bildiruvchi leksemalarning semantik strukturasiida “yoqimsizlik” semasi mavjud boʻlib, bu arxisema vazifasini bajaradi. Mazkur leksemalar “*koʻrinish*”, “*organ va organlar*”, “*harakat va holat*” “*tabiatni tashqi koʻrinishi*” kabi semalari bilan umumlashuvchi toʻrt guruhga boʻlinadi. Bu semalarning har biri xunuklik bildiruvchi leksemalarning biror guruhini umumlashtirish vazifasini oʻtaydi va shu guruhdagi soʻzlar sememasi uchun integral sema vazifasini bajaradi. Bu kichik guruhdagi leksemalarning har biri differensial semalari bilan oʻzaro farqlanadi.

Ishimizning 2-bob 3-fasli “*Ingliz va oʻzbek tillarida “goʻzallik/xunuklik” konseptlarini ifodalovchi soʻzlarning struktur tahlili*”ga bagʻishlangan. Unda biz goʻzallik/xunuklik konseptidagi leksemalarni struktur jihatdan tahlilga tortdik. “Goʻzallik/xunuklik” maʼnolarini ifodalovchi soʻzlarning tuzilish yoʻllari va shakllarini yoritmay turib, ularning semantik tahlili haqida gapirib boʻlmaydi. Buning sababi semantikaning oʻzi hech qachon shakldan ajralgan holda mavjud boʻlmasligidir.

1-jadval

Ingliz tilidagi “goʻzallik/xunuklik” konseptiga oid soʻzlarni tuzilishi jihatidan tahlili

Konsept nomi	Sodda negizli (oʻzak) soʻzlar	Yasama soʻzlar	Qoʻshma soʻzlar	Soʻz birikmalari
Beauty	25%	35%	26%	10%
Ugliness	16%	40%	21%	20%

Agar har ikkala konsept tarkibiga kiruvchi soʻzlarni tuzilish jihatdan taqqoslaydigan boʻlsak, baʼzi farqli tomonlarni kuzatish mumkin. Birinchidan, sodda negizli soʻzlar miqdori “beauty” konseptida “ugliness”ga qaraganda koʻproq (25 % – 16%). Ammo har ikkala konseptni ifodalovchi yasama va qoʻshma soʻzlar miqdori deyarli teng keladi (35 % – 40 %), - (26% – 21 %).

Tadqiqotning koʻrsatishicha, “beauty/ugliness” konseptlarini ifodalovchi koʻp miqdordagi soʻzlarni, asosan, yasama soʻzlar tashkil etadi. Tahlil natijalaridan yana shu narsa maʼlum boʻldiki, old qoʻshimcha (prefiks)lar yordamida soʻz yasaliş hodisasi “beauty” konseptida yaxshi taraqqiy etmagan. Bu hodisa koʻproq ugliness konseptiga xos boʻlib, bunda *un-*, *ir-*, *dis-*, *in-*, *mis-* prefikslari ancha faol hisoblanadi. Suffikslar orqali soʻz yasaliş hodisasi har ikkala konsept uchun ham xosdir. Bunda eng faol suffikslardan quyidagilarni qayd etish mumkin: *-ly*, *-ness*, *-ous*. Masalan, “beauty” konseptida: *lovely*, *goodly*, *shapely*, *manly*, *stately*, *brightness*, *fairness*, *loveliness*, *attractiveness*, *gracefulness* and, etc; “ugliness” konseptida: *homely*, *grisly*, *ghastly*; *-ous* suffiksi faqat “beauty” konseptida uchradi: *attractious*, *beauteous*, *curvaceous* kabi.

Ishimizning keyingi bosqichida tahlil etilgan soʻzlarning soʻz birikmalari hosil qilishdagi ishtiroki va bu birikmalarning struktur modellari haqida fikr yuritimiz. Biz mazkur soʻz birikmalarini ularning komponentlari tarkibiga qarab quyidagi guruhlariga ajratdik: a) ikki komponentli; b) uch komponentli; v) koʻp komponentli.

Tahlil jarayonida ikki komponentli soʻz birikmalarining uch va koʻp komponentlilarga nisbatan koʻpligi aniqlandi. Ularning struktur modellarini quyidagi jadvalda keltiramiz:

2-jadval

Konsept	Modellar	Soʻzlar miqdori	Misollar
Beauty	V+adj	1	Make bright
	V+adv	1	Go well
	V+prep	1	Set off
	Adj+N	12	Fair proportions, good looks, good taste, vital statistics
	N+pr+N	3	Thing of beauty
	N+pr+adj+N	1	Sight for sore eyes
	Jami:	20	
Ugliness	V+adj	1	Make ugly
	Adj+N	1	Ugly person, aesthetic crime
	Not+pr+N	6	Not one's type
	No+adj+n	3	No oil pointing
	jami:	11	

Jadvaldan koʻrinib turibdiki, struktur tahlil natijalari ikki komponentdan iborat boʻlgan soʻz va soʻz birikmalari tadqiqot olib borilayotgan konseptlarda

ancha faol ekanligini ko'rsatdi. Bunda Adj + N struktur modeli ustunlikka ega. Buning asosiy sabablaridan biri sifatning ko'proq ot bilan birikishida deb qarash maqsadga muvofiqdir.

3-jadval

O'zbek tilidagi "go'zallik/xunuklik" konseptiga oid so'zlarni tuzilishi jihatidan tahlili

Konsept nomi	Sodda negizli (o'zak) so'zlar	Yasama so'zlar	Qo'shma so'zlar	So'z birikmalari
Go'zallik	40%	45%	5%	10%
Xunuklik	40%	42%	6%	12%

Ko'rinib turibdiki, "go'zallik" konseptidagi yasama so'zlar miqdori sodda negizli so'zlar miqdoriga qaraganda ko'proq. Agar har ikkala konsept tarkibiga kiruvchi so'zlarni tuzilish jihatdan taqqoslaydigan bo'lsak, ba'zi farqli va o'xshash tomonlarni kuzatish mumkin. Birinchidan, sodda negizli va yasama so'zlar miqdori "go'zallik" va "xunuklik" konseptida teng miqdorda (40%–40%, 45%–42%). Ammo har ikkala konseptni ifodalovchi qo'shma so'zlar va so'z birikmalari miqdori deyarli teng keladi (5 %–6 %, 10%–12 %).

Tadqiqotning ko'rsatishicha, "go'zallik/xunuklik" konseptlarini ifodalovchi ko'p miqdordagi so'zlarni, asosan, yasama so'zlar tashkil etadi. Tahlil natijalaridan yana shu narsa ma'lum bo'ldiki, old qo'shimcha (prefiks)lar yordamida so'z yasaliş hodisasi har ikkala konseptda ham uchraydi. "Xunuklik" konseptida ko'proq *be-*, *bad-*, *no-* prefikslari faol sanaladi. Masalan: *badbashara*, *badburush*, *badgo'y*, *badnamo*, *badnusxa*, *badrang*, *badro'y*, *badsurat*, *badxat*, *badnusxa*, *badchehra*, *badqovoq* kabi..

"Go'zallik" konseptida esa *gul-*, *ser-*, *xush-*, *dil-* singari prefikslar ko'p qo'llanishiga guvoh bo'ldik: *gulbadan*, *go'zallik*, *gulchehra*, *gulchiroy*, *gulyuz*, *guluzor*, *guluzor*, *gulruh*, *gulro'*, *gulyor*, *guljabin*, *gulday* va hokazo.

Suffikslar orqali so'z yasaliş hodisasi ham har ikkala konsept uchun ham xosdir. Bunda eng faol suffikslardan quyidagilarni qayd etish mumkin: *-li*, *-dor*, *-lik*. Masalan, "go'zallik" konseptida: *ziynatli*, *istarali*, *ishvali*, *maloxatli*, *manzarali*, *karashmali*, *kelbatli*, *ko'rimli*, *karashmali*, *kelbatli*, *haybatli*, *hashamatli*, *ko'rkli*, *ko'hli*, *latofatli*, *nazokatli*; *qomatdor*, *hashamdor*, *husndor* kabi;

"Xunuklik" konseptida quyidagi suffikslar faol qo'llanishini ko'rishimiz mumkin: *-siz*: *yoqimsiz*, *ko'rimsiz*, *ko'rksiz*, *fayzsiz*, *farosatsiz*, *farishtasiz*, *farog'atsiz*, *didsiz*; *-lik*: *tanballik*, *tantiqlik*, *tarxashlik*, *tundlik*, *to'nglik*, *faqirlik*, *xarobalik*, *xaroblik*, *xarobgarchilik* kabi.

Ishimizning keyingi bosqichida tahlil etilgan so'zlarning so'z birikmalari hosil qilishdagi ishtiroki va bu birikmalarning struktur modellari haqida fikr yuritimiz. Biz mazkur so'z birikmalarini ularning komponentlari tarkibiga qarab quyidagi guruhlarga ajratdik: a) ikki komponentli; b) uch komponentli; v) ko'p komponentli.

Tahlil jarayonida ikki komponentli soʻz birikmalarining uch va koʻp komponentlilarga nisbatan koʻpligi aniqlandi. Ularning struktur modellarini quyidagi jadvalda keltiramiz:

4-jadval

Konsept	Modellar	Soʻzlar miqdori	Misollar
Goʻzallik	Ot+sifat	4	alif qomat, qaddi-raso, sarvi qomat, juvon soʻxta
	Ot+ot	4	qalam qosh, qoshi qalam, zeb-ziynat, oy yuzli
	Sifat+ot	7	jayron koʻz, gul yuz, pista dahan, sambit qomat, xurshidi tobon, qunduz qosh, mohi tobon
	Ot+boʻlishli	1	farishtasi bor
	Ot+sifat+fel	-	-
	Sifat+feʻl	4	xol qoʻymoq, chiroyi ochilmoq, xipchadan kelgan, shaltoq otmoq,
	Sifat+sifat	2	gul-gul, jimir-jimir
	Jami:	22	
Xunuklik	Ot+sifat	5	turqi sovuq, soʻhtasi sovuq, jigar soʻxta, goʻr soʻhta, bola faqir
	Sifat+ot	4	ola koʻz, shum qadam, shum oyoq, shum xabar
	Sifat+feʻl	5	xunuk koʻrinmoq, ola qaramoq, jingak boʻlmoq, shalogʻi chiqqan, shaltoq otmoq
	Ot+sifat+feʻl	1	Ishni xurjun qilmoq
	Ot+inkor	1	farishtasi yoʻq
	Sifat+sifat	4	aji-buji, alvir-shilvir, oʻpoq-soʻpoq, qalangʻi-qasangʻi
	jami:	20	

Jadvaldan koʻrinib turibdiki, struktur tahlil natijalari ikki komponentdan iborat boʻlgan soʻz va soʻz birikmalari tadqiqot olib borilayotgan konseptlarda ancha faol ekanligini koʻrsatdi. Bunda *sifat+ot* struktur modeli ustunlikka ega. Buning asosiy sabablaridan biri sifatning koʻproq ot bilan birikishida deb qarash maqsadga muvofiqdir.

Tadqiqot ishimizning 3-bobi “*Ingliz va oʻzbek tillarida “goʻzallik/xunuklik” konsepti verbalizatorlarining lingvokulturologik xususiyatlari*” deb nomlanib, birinchi fasli “*Lingokulturologiya antroposentrik paradigmaning asosiy yoʻnalishlaridan biri sifatida*” deb nomlangan boʻlib, lingvokulturologiyani vujudga kelishi va asosiy masalalari xususida atroflicha fikr yuritiladi.

Antroposentrik tilshunoslikning etakchi yo‘nalishlaridan biri hisoblangan lingvokulturologiya tilshunoslik, madaniyatshunoslik, etnografiya, psixolingvistika sohalari oralig‘ida yuzaga kelgan bo‘lib, tilning madaniyat, etnos, milliy mentallik bilan o‘zaro aloqasi va ta‘sirini antroposentrik paradigma tamoyillari asosida o‘rganadi.

Inson til tufayligina dunyoni va o‘zini tushunishga qodir. Bunda ijtimoiy-tarixiy tajriba ham umuminsoniy ham milliy omil sifatida ishtirok etadi. Milliy omil tilning barcha sathlarida kuzatiladi.

Til vositalari orqali dunyoni ko‘rishga bo‘lgan qiziqish V.Gumboldt ishlaridayoq o‘z ifodasini topgan. U shunday yozadi: “Turli tillarning yagona bir predmetni turlicha nomlashi ushbu predmetni turlicha ko‘rish, idrok etishidir”.

Qiyosiy-tipologik tahlil natijasida har xil madaniyatlarga xos lisoniy lakunalar mavjud ekanligi aniqlandi. Masalan, inglizlar uchun *qovun* birgina so‘z – *melon* deb atalsa, ruslarda faqat *dinya*, o‘zbeklarda *qovunni* turlari juda ko‘p (*bosvoldi, bo‘rikalla, obinovvot, shakarpalak, qoraqand, shirinpo‘choq, kampirchopon*) kabi turlari mavjud bo‘lganligi uchun shunday leksemalar ham tilimizda mavjud. Ingliz va ruslar uchun faqat bitta so‘z ishlatiladi. Yoki o‘zbek tilidagi uzumning turli navlari (*xusayni, qora to‘s, qora charos, chilgi, mers*) kabi o‘ndan ortiq turi mavjud bo‘lsa, ingliz va rus xalqida faqat bittadan leksema (*vinograd - grapes*) mavjud.

Ishimizning 3-bob 2-fasli “*Ingliz va o‘zbek tillarida frazeologik birlik va paremiologiyada “go‘zallik/xunuklik” konseptlarining voqelanishi*”ga bag‘ishlanadi. Bu faslda tilning frazeologik fondi ma‘lum bir xalqning urf-odati, turmush tarzi, madaniyati va mentalitetini aks ettiruvchi muhim ma‘lumotlar manbai hisoblanishi va frazeologizmlarda muayyan xalqning miqlari, udumlari, rivoyatlari, urf-odatlari o‘z aks topishi va olamning lisoniy manzarasini yaratishda yoki til vositalari orqali dunyoni ko‘rishda frazeologizmlar alohida o‘rin tutishi to‘g‘risida fikr yuritiladi. Ingliz tilining frazeologik lug‘atlari tahlili natijalaridan inson tashqi ko‘rinishini ifodalovchi frazeologizmlarning miqdor jihatidan ko‘p ekanligiga guvoh bo‘ldik. Yana shuni qayd etish joizki, ingliz tilidagi frazeologik material xunuklikni ifodalashdan ko‘ra ko‘proq go‘zal tashqi ko‘rinishni ifodalashga qaratilgani ma‘lum bo‘ldi. Insonning go‘zal ko‘rinishi ifodasini quyidagi iboralarda ko‘rishimiz mumkin: *sweets to the sweet; out of this world; graceful as a swan; prince charming; as pretty as a picture; may queen; as handsome as a paint; as shining as star; a dolly bird; a slick chick; fair as lily; a feast to the eye; as sweet as honey; as handsome as young Greek god; beau ideal; as pure as lily; a fair treat, honey eyed, out of sight, slightly, lady-killer, to live in style, heart stopping, Barbie doll, cover girl, cheese cake*, kabilar.

